

SCIENCE AND EDUCATION

ISSN 2181-0842

VOLUME 5 ISSUE 2

FEBRUARY 2024

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN 2181-0842

VOLUME 5, ISSUE 2

FEBRUARY 2024



www.openscience.uz

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 5 ISSUE 2

| | |
|---|---|
| Executive Secretary | Mas'ul kotib |
| Tusmatova Nozima Inomovna | Tusmatova Nozima Inomovna |
| Editorial board | Tahririyat |
| Z.Yaxshieva | Z.Yaxshieva |
| Jizzakh State Pedagogical Institute, Doctor of Chemical Sciences | Jizzax davlat pedagogika instituti, kimyo fanlari doktori |
| S.Sangwa | S.Sangwa |
| African Leadership University, Doctor of Business Administration | African Leadership University, Doctor of Business Administration |
| S.Otakulov | S.Otaqulov |
| Jizzakh Polytechnic Institute, Doctor of Physical and Mathematical Sciences | Jizzax politexnika instituti, fizika-matematika fanlari doktori |
| M.A.S.Khasawneh | M.A.S.Khasawneh |
| King Khalid University, Special Education, PhD | King Khalid University, Special Education, PhD |
| Sh.Akramova | Sh.Akramova |
| Military-technical Institute of the National Guard, Doctor of Pedagogical Sciences | Milly gvardiya harbiy-texnik instituti, pedagogika fanlari doktori |
| E.M.Colicassides | E.M.Colicassides |
| College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication | College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication |
| B.Sultonov | B.Sultonov |
| Namangan State University, Doctor of Technical Sciences | Namangan davlat universiteti, texnika fanlari doktori |
| Ya.L.Chemyavskaya | Ya.L.Chemyavskaya |
| Tyumen State Medical University, Candidate of Philological Sciences | Tюменский государственный медицинский университет, кандидат филологических наук |
| A.Sidiqov | A.Sidiqov |
| Tashkent Institute of Chemical Technology, Doctor of Chemical Sciences | Toshkent kimyo-tehnologiya instituti, kimyo fanlari doktori |
| W.B.Vidona | W.B.Vidona |
| Edo State University, Anatomy, PhD | Edo State University, Anatomy, PhD |
| B.Kucharov | B.Kucharov |
| Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences | Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, texnika fanlari doktori |
| I.Eshmetov | I.Eshmetov |
| Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences | Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, texnika fanlari doktori |
| M.Abdullaev | M.Abdullaev |
| Andijan State University, Doctor of Historical Sciences | Andijon davlat universiteti, tarix fanlari doktori |
| Z.Tojieva | Z.Tojieva |
| National University of Uzbekistan, Doctor of Geographical Sciences | O'zbekiston milliy universiteti, Geografiya fanlari doktori |
| N.Jiyanova | N.Jiyanova |
| Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences | Toshkent moliya instituti, iqtisod fanlari nomzodi |
| X.Qobulov | X.Qobulov |
| Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences | Toshkent moliya instituti, iqtisod fanlari nomzodi |
| A.Nabiev | A.Nabiev |
| Tashkent Institute of Chemical Technology, PhD in Technical Sciences | Toshkent kimyo tehnologiya instituti, texnika fanlari PhD |
| A.Turgunbaeva | A.Turgunbayeva |
| Namangan State University, PhD in Psychological Sciences | Namangan davlat universiteti, psixologiya fanlari PhD |
| B.Xaynazarov | B.Xaynazarov |
| National University of Uzbekistan, PhD in Historical Sciences | O'zbekiston milliy universiteti, tarix fanlari PhD |
| M.Voxidova | M.Voxidova |
| Tashkent State Institute of Oriental Studies, PhD in Economics | Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, iqtisodiyot fanlari PhD |
| A.Rahmonov | A.Rahmonov |
| Republican Scientific-Practical Center, PhD in Pedagogical Sciences | Respublika ilmiy-amaliy markaz, pedagogika fanlari PhD |
| G.Ochilova | G.Ochilova |
| Karshi Institute of Engineering and Economics, Candidate of Philosophical Sciences | Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti, falsafa fanlari nomzodi |
| B.Omonov | B.Omonov |
| Karshi State University, PhD in Philosophical Sciences | Qarshi davlat universiteti, falsafa fanlari PhD |
| O.Axmedova | O.Axmedova |
| Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Technical Sciences | Buxoro muxandislik-tehnologiya instituti, texnika fanlari PhD |
| G.Jumanazarova | G.Jumanazarova |
| Jizzakh State Pedagogical Institute, Doctor of Philological Sciences | Jizzax davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari doktori |
| T.Sabirjanov | T.Sabirjanov |
| Fergana Polytechnic Institute, Candidate of Technical Sciences | Farg'onha politexnika instituti, texnika fanlari nomzodi |
| Sh.Ismoilov | Sh.Ismoilov |
| Tashkent State Law University, Doctor of Sciences in Law | Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari doktori |
| M.Rakhimov | M.Rakhimov |
| Tashkent State Law University, Doctor of Philosophy in Law | Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari falsafa doktori |
| L.Rakhimkulova | L.Rakhimkulova |
| Tashkent State Law University, Doctor of Philosophy in Law | Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari falsafa doktori |
| A.Sultonov | A.Sultonov |
| Jizzakh Polytechnic Institute, PhD in Economics | Jizzax politexnika instituti, iqtisodiyot fanlari PhD |
| B.Safarov | B.Safarov |
| Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Technical Sciences | Buxoro muxandislik-tehnologiya instituti, texnika fanlari PhD |
| J.M.Sasan | J.M.Sasan |
| PAU Excellencia Global Academy Foundation, Inc., Professional Education | PAU Excellencia Global Academy Foundation, Inc., Professional Education |
| H.Toshov | H.Toshov |
| National University of Uzbekistan, PhD in Chemistry | O'zbekiston Milliy universiteti, kimyo fanlari PhD |
| I.Davletov | I.Davletov |
| Urgench State University, Doctor of Physics and Mathematics | Urganch davlat universiteti, fizika-matematika fanlari doktori |
| F.Kholmurotov | F.Xolmurotov |
| University of Social Development, PhD in Economics | Ijtimoiy rivojlanish universiteti, iqtisodiyot fanlari PhD |
| A.Mahmudova | A.Mahmudova |
| Samarkand State Medical University, PhD in Philosophy | Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Falsafa fanlari PhD |
| Q.Panjieva | Q.Panjieva |
| Tashkent State Pedagogical University, Doctor of Pedagogical Sciences | Toshkent davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fanlari DSc |
| B.Rahimov | B.Rahimov |
| Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Technical Sciences | Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti, Texnika fanlari PhD |
| N.Adizova | N.Adizova |
| Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Chemical Sciences | Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti, Kimyo fanlari PhD |

TABLE OF CONTENTS / MUNDARIJA

EXACT SCIENCES / ANIQ FANLAR

| | | |
|----|--|----|
| 1. | Erali Boyqobilov, N.Raximov <u>Sonning butun va kasr qismi qatnashgan masalalarni yechish metodlari</u> | 11 |
| 2. | A.Ibragimov, O.Pulatov, A.Qo'chqorov <u>Qiziqarli tenglama va tengsizliklar</u> | 17 |
| 3. | Alisher Nematilloyevich Ubaydulloyev, Jonibek Mirzoali o'g'li Rajabov <u>Stereometriya haqida umumiy tushuncha, stereometriya aksiomalari</u> | 20 |

NATURAL SCIENCES / TABIIY FANLAR

| | | |
|-----|--|-----|
| 4. | Комил Буронович Холиков <u>Эффективное действия сквалан - углеводород тритерпенового ряда и амаранта к заболеваниям рака, опухоли</u> | 27 |
| 5. | Комил Буронович Холиков <u>Обязанности миелина, о левом и правом пороге миелина</u> | 33 |
| 6. | Anvar Narzullayevich Asadullayev <u>Lat yeganda va shikastlanganda bиринчи тибби түрдам ко'rsатиш</u> | 45 |
| 7. | Nargiza Jo'rayevna Babamurodova <u>Qishloq xo'jaligi ekologiyasi va oziq-ovqat muammosi</u> | 52 |
| 8. | Mohammad Shafiq Haqmal, Abdul Basir Rahmani, Khalil Ahmad Burhani <u>Farah province folkloric medicine treatment</u> | 61 |
| 9. | Nargiza Toirjonovna Mamatova, Bahrombek Abduvalievich Abduxakimov, Shirin Xayrulloevna Axtamova, Abduvaliy Abduxakimovich Ashurov <u>Ko'p bolali oiladagi bolalarda ko'krak ichi limfa tugunlari silning aniqlanishi va uning kechishi</u> | 69 |
| 10. | Ikromjon Esanboylievich Uzaqov, Sokinaxon Jo'raxon qizi Xamroxonova, Mehruza Maxmud qizi Ro'zimova, Zebo Abduraxim qizi Uzoqova <u>Orol dengizini qurishidan kelib chiqadigan global muammolar va yechimlar</u> | 77 |
| 11. | Shoxjaxon Paxlavonovich Rabbimov, Samirjon Shekrozovich Xabibullayev, Damira Akmalovna Oripova, Sherzod Farxodovich Majidov <u>Formation of sanitary and hygienic knowledge as a separate science in the history of medicine</u> | 84 |
| 12. | Saifullah Amin, Waliullah Qasimi, Said Wali Baran <u>Feasibility study of land readjustment in suburban of Khost city</u> | 91 |
| 13. | Мехрибон Хуршедовна Хайриллоева, Нигора Аброровна Вафоева <u>Модификации в гемодинамике центрального кровообращения при заболеваниях почек</u> | 101 |
| 14. | Феруза Хайдаровна Маматкулова, Мухаммад Насриддин ўғли Номозов <u>Сурункали буйрак касаллиги билан оғриган беморларда анемияни даволашга замонавий ёндашувлар</u> | 110 |
| 15. | Иzzatbek Abdukhaliq ўғли Ураимов <u>Кузги буғдой навларининг мақбул экиш муддатлари ва сугориш тартибларини ҳамда маъданли ўғитнинг тавсия қилинган йиллик мейёрини белгилаш</u> | 119 |
| 16. | Г.Б.Мустаева, О.С.Тиркашев, Ж.Б.Уралов <u>Эрта ёшдаги болаларда гемоколит синдроми билан кечувчи ўткир ичак инфекцияларини ўзига хос клиник-лаборатор кечиш хусусиятлари</u> | 125 |
| 17. | М.Ш.Ибрагимова, О.Х.Холмуродов <u>Вклад Авиценны в развитие современной фармацевтики</u> | 130 |

Lat yeganda va shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Anvar Narzullayevich Asadullayev
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Muallif tomonidan ushbu maqolada jarohatlangan shaxslarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning vositalari, shikastlangan fuqoralarga ko'rsatiladigan yordamning vazifasi va tezkor chora-tadbirlar ko'rish bilan uning hayotini saqlab qolish, kasalliklarni yengillashtirish bo'yicha fikr va tavsiyalar.

Kalit so'zlar: birinchi tibbiy yoram ko'rsatish, qon ketishini vaqtincha tuxtatish, suniy nafas berish, antibiotiklar berish, og'riq qoldiradigan dorilar

Providing first aid in the event of a bite or injury

Anvar Narzullayevich Asadullayev
Bukhara State University

Abstract: In this article, the author's opinion and recommendations on the means of providing first aid to injured persons, the task of providing assistance to injured citizens, and taking quick measures to save his life, reduce diseases.

Keywords: first aid, temporary stoppage of bleeding, artificial respiration, antibiotics, painkillers

Shikastlangan fuqarolarga ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordamning asosiy vazifasi tezkor choralar ko'rish bilan ularning hayotini saqlab qolish, azob-uqubatlarning oldini olish yoki kasallikning kechishini yengillashtirishdan iboratdir. Birinchi tibbiy yordam, shikastlanish hodisasi sodir bo'lgan joyda shikastlanganlarning o'z-o'zлари va bir-birlariga o'zaro yordamlari hamda sanitary drujinachilar tomonidan ko'rsatilishi mumkin. Birinchi tibbiy yordam turkumiga quyidagi chora-tadbirlar kiradi: qon ketishini vaqtincha to'xtatish; badanning jarohatlangan yoxud kuygan joyiga toza steril bog'lam qo'yish; sun'iy nafas oldirish va yurakni bilvosita massaj qilish, uqalash; turli zahriqotillarga qarshi emdori, antidot (ziddizahar)lar yuborish, antibiotiklar berish, og'riq qoldiradigan, tinchlantiradigan dorilar yuborish (ayniqsa, shok vaqtida); yonib turgan kiyimni o'chirish, shikastlangan odamni transport vositasida bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish uchun uning shikastlangan joyini qimirlamaydigan qilib bog'lash (transport immobilizatsiyasi), odamni issiq va sovuq harorat ta'siridan asrash, uning muzlab

qolgan badanini isitish; turli zaharlovchi moddalar bilan shikastlanganlarga gazniqob kiydirish, ularni xavfsiz joylarga olib chiqish, shuningdek, qisman sanitariya ishlovlarini zudlik bilan o'tkazish va h.k. Birinchi tibbiy yordamni mumkin qadar tez va qisqa fursatlarda ko'rsatish kasallik va shikastlanishlarning keyinchalik qanday o'tishi, oqibati nima bilan tugashi, ba'zan esa shikastlanganlarning hayotini asrab qolish uchun nihoyatda muhim ahamiyatga egadir. Ko'p miqdorda qon ketayotgan, elektr tokidan shikastlangan, suvga cho'kkан paytda yurak faoliyati to'xtab, nafasi chiqmay qolgan va yana boshqa shunday og'ir hollarda albatta, birinchi tibbiy yordam ko'rsatilishi zarur. Basharti, ko'plab odamlar bir yo'la birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga muhtoj bo'lishsa, bunday yordamning muddatlari hamda navbatli belgilanadi. Ayni paytda bir yo'la har xil turdag'i shikastlanishlarga duchor bo'lган fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun ayrim usullar tartibini ham belgilab olish lozim. Bunda avvalo, shikastlangan odamning hayotini saqlab qolishga imkon beradigan eng zarur amallarga asosiy e'tibor beriladi. Chunonchi, son suyagi ochiq sinib, arteriyadan qon oqib turgan vaqtida birinchi navbatda hayot uchun xatarli bo'lган qon ketishini to'xtatish, keyin jarohatga toza, steril bog'lam qo'yish va shundan so'ng oyoqni qimirlamaydigan qilib bog'lash (immobilizatsiya qilish)ga kirishiladi. Singan suyakning o'z joyidan siljimasligi uchun maxsus shina - taxtakach yoki o'sha sharoitda ko'zga tashlanib, qo'lga ilingan yana boshqa barcha imkoniyatlar, tibbiy, hayotiy yordamchi vositalardan foydalanish lozim. Birinchi tibbiy yordamning barcha usul-amallarini imkonli boricha nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan tez bajarmoq zarur. Shoshma-shosharlik va qo'pol xattiharakatlar bilan amalga oshirilgan yordam, shikastlangan odamga salbiy ta'sir ko'rsatishi, uning avholini og'irlashtirishi mumkin. Birinchi tibbiy yordamni bir emas, bir necha kishi ko'rsatadigan bo'lsa, ular bu vazifani o'zaro kelishib, hamjihatlik bilan amalga oshirgan ma'qul. Buning uchun biri rahbarlik mas'uliyatini zimmasiga olishi lozim. Yuqorida aytganimizdek, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida asosan, mazkur sharoitda ko'z oldimizda va qo'l ostimizda bo'lган mavjud vositalardan keng va unumli foydalaniladi. Bunday vositalar tukumiga: bog'lovchi materiallar - bintlar, tibbiy bog'lov paket - xaltachalari, katta va ularning kichik hajmdagi toza, steril bog'lamli salfetkalar, paxta va boshqa ashyolar kiradi. Qon ketishini tuhtatish uchun esa, maxsus taxtachalar, fanerli, shotisimon, to'rsimon va boshqa turdag'i shinalar ishlataladi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda ba'zi dori -darmonlardan ham foydalaniladi. Chunonchi, naysimon ampula va shisha idishlarga solingan spirtdagi 5% li yod eritmasi, spirtdagi 1-2%li briliant yashili eritmasi, validol tabletkalari, valerianka tomchi dorisi, shisha naychalardagi novshadil spirti, shuningdek, tugmachasimon shakldagi yoxud kukun holidagi natriy gidrokarbonat (ichimlik sodasi), vazelin va boshqalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ommaviy zararlanish o'choqlarida radiofaol zaharlovchi moddalar hamda bacterial vositalar

ta'siridan saqlanish, ulardan muhofaza qilish maqsadida shaxsiy dorilar majmui jamlangan shaxsiy individual aptechka (AI-2) imkoniyatlaridan ham foydalanish zarur. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun bahtsiz hodisa sodir bo'lgan joyda ko'zga tashlangan va qo'l ostida bo'lgan vositalar turkumiga bog'lam qo'yish uchun toza choyshab, qo'ylak, gazlama (iloji bo'lsa oq tusdagi); qon to'xtatish uchun esa tasma, bog'ich, jgut o'rniga shim kamari yoki belbog', gazlama parchasi; suyak singanda: shinalar o'rniga qattiq qog'oz yoxud faner bo'laklari, taxta, tayoq va boshqalar ishlataladi. Jarohat deb, teri qoplamlari, shilliq pardalari, ba'zan esa ancha ichkaridagi to'qimalar yaxlitligi, butunligining buzilishi va og'rib, qonab turgan, yuzasi ochiq shikastlanish o'chog'i, markaziga aytildi. Jarohatlarning kelib chiqish sabablari va ko'rinishlari turlicha bo'ladi. Chunonchi, o'q tekkani, kesilgani, chopilgani, sanchilgani, urilgani, ezilgani, yirtilgani, tishlangani sababli jarohat paydo bo'lishi mumkin. O'q tekkan jarohatlar, otilgan o'q yoki uning parchasi, oskolkadan yaralanish tufayli paydo bo'ladi. Natijada tanani teshib o'tgan, uchi berk, yopiq bo'lgan yoxud urinma jarohatlar yuzaga keladi. Tanani teshib o'tgan jarohatlarda albatta, uning kirish va chiqish teshiklari mavjud bo'ladi. Uchi berk jarohatlarda o'q to'qimalar orasida qoladi, urinma jarohatlarda esa, turli yo'nalishda uchib kelgan o'q yoki oskolka yumshoq to'qimalar orasida qolmasdan, teri va to'qimalarni shikastlab o'tadi. Kesilgan va sanchilgan jarohatlarning shikastlanish doirasi bir muncha kichik, chetlari tekis bo'ladi, shuning uchun ham bunday jarohatlar devorlarining hayotiyligi, tez bitib ketish xususiyati saqlanadi, ammo ulardan ko'p qon ketadi, boshqa turdag'i jarohatlarga nisbatan bunday jarohatlarga infeksiya kamroq yuqadi. Sanchilgan jarohatlarning tanani teshib o'tgan turlari teri yoki shilliq pardani uncha ko'p zararlamasa ham, chuqur bo'lishi, hatto ichkaridagi ichki a'zolarni shikastlab, tashqaridan infeksiya olib kirishi, organizmga katta xavf-xatar tug'dirishi, qorin bo'shlig'i pardasining yallig'lanishi (peritonit), qonning zararlanishi (sepsis) kabi og'ir asoratlarga sababchi bo'lishi ham mumkin. Chopilgan jarohat har xil chuqurlikda bo'lib, yumshoq to'qimalarning urilib, lat yeyishi va ezilishiga olib keladi. Urilgan, yirtilgan va ezilgan jarohatlar murakkab shaklda, chetlari notekis bo'lishi bilan belgilanadi. Ancha joylari qontalash, o'limtik (nekrozga uchragan) to'qimalarga boy bo'ladi. Bunday jarohatlarda infeksiyaning tez avj olishi, uning yiringlab ketishi uchun qulay shart - sharoit vujudga keladi. Yirtilgan jarohatlar qo'pol mexanik ta'siri tuafayli ham paydo bo'lib, aksariyat terining sidirilishi, mushak va tomirlarning shikastlanishi, ularning ifloslanishi bilan davom etadi. Tishlangan jarohatlarda esa hamisha ifloslangan so'lak aralashgan bo'ladi. Ma'lumki, deyarli barcha jarohatlar (bundan operatsiya jarohatlari mustasno) birlamchi tartibda infeksiyalangan, ya'ni ifloslangan deb hisoblanadi. Chunki, ularga albatta biror qo'shimcha jarohatlovchi narsa, ya'ni tuproq, kiyim - bosh bo'laklari bilan birga, havodan hamda jarohatga qo'l tekkizilgan paytda unga ko'plab zararli jonzotlar,

mikroblar tushadi. Bu esa, jarohatning o‘z navbatida yiringlab ketishi, saramas singari yaramas asoratning boshlanishiga sabab bo‘ladi. Havosiz joyda tez ko‘payib, urchiydigan va anaerob infeksiya (gazli gangrena)ga sabab bo‘ladigan mikroblarning jarohatga tushishi hayot uchun nihoyatda xavflidir. Jarohatlarning yana bir xatarli asorati, ularga qoqshol mikrobi yuqib qolishidir. Odamning badaniga har qanday jarohat yetganida, ayniqsa, jarohat tuproq bilan ifloslanganida, shuningdek, to‘qimalar ezilganida qoqsholning oldini olish uchun jarohat olgan odamga albatta, qoqsholga qarshi tozalangan anatoksin yoxud qoqsholga qarshi zardob yuborilishi shart, aks holda buning oqibati fojia bilan tugaydi. Har qanday jarohatga mikrob tushmasligi, uning ifloslanmasligi oldini olish uchun eng muhim shartlardan biri, maxsus tayyorlangan, toza, aseptik bog‘lamni mumkin qadar tezroq ishlatalish, jarohat yuzini berkitish, bog‘lab qo‘yishdir. Jarohatlar yuzada joylashgan yoki aksincha kalla qopqog‘i, ko‘krak qafasi, qorin bo‘shlig‘ini teshib o‘tgan bo‘lishi ham mumkin. Bunday tanani teshib o‘tgan jarohatlar hayot uchun nihoyatda xavflidir. Masalan, ko‘krak jarohatlanganida ko‘pincha o‘pka ham shikastlanadi. Natijada qon tuflash, plevra bo‘shlig‘iga qon oqib tushishi va teri osti emfizemasi (teri ostida havo to‘planishi) paydo bo‘ladi. Tanani teshib o‘tgan ko‘krak jarohatlari orasida yopiq, ochiq va qopqoqli, ya’ni klapanli pnevmotoraksga sabab bo‘ladigan jarohatlar ham tafovut qiladi. Odam jarohatlanganida ko‘krak devoridagi jarohatdan, bronxdan yoxud o‘pkasidan plevra bo‘shlig‘iga havo o‘tadi. Bunday holatda plevra bo‘shlig‘iga o‘ta boshlagan havo jarohat kanalidagi yumshoq to‘qimalarning tiqilib, berkilib qolishi natijasida o‘tolmay, to‘xtab qoladi. Oqibatda yopiq pnevmotoraks yuzaga keladi. Teshib o‘tgan qorin jarohatlari ichki a’zolar: jigar, me’da, ichak, buyrak va boshqalarni jarohatlantirgan yoki jarohatlantirmagan, ularni qorin bo‘shlig‘idan tashqariga chiqishiga olib kelishi yoki bunday holatga olib kelmagan bo‘lishi mumkin. Jarohatning o‘zidan tashqari qorin qismiga qattiq yoyilgan og‘riq, qorin devori mushaklarining taxtadek taranglashishi, qorinning dam bo‘lib shishishi, chanqash, og‘iz qurishi, teshib o‘tgan jarohat alomatlari hisoblanadi. Qoringa yopiq shikastlar yetganida jarohat bo‘lmay turib ham qorin bo‘shlig‘idagi ichki a’zolar shikastlanishi mumkinligini doimo yodda tutish lozim. Tibbiy yordam ko‘rsatishda jarohatlarni bog‘lash usullari ham mavjud. Bahtsiz holatlarda shikastlanganlarning jarohatini bog‘lash, uning ko‘ngilsiz asoratlarining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun tozalik va ozodalik (aseptika va antiseptika) qoidalariiga to‘liq rioya qilgan holda tegishli bog‘lam turlaridan oqilona foydalanish va ularni mohirlik bilan qo‘llash usullarini bilish lozim. Bog‘lam, jarohat yuzasini berkitib qo‘yish uchun qo‘llanadigan xom ashyodir. Ma’lumki, bog‘lam ikki qismdan, ya’ni jarohat yuzasiga bevosita tegib, taqalib turadigan ichki qism va nihoyat uni bosib, mustahkam ushlab turadigan tashqi qismdan iborat. Tabiyki, bog‘lamning ichki qismi toza, sterillangan bo‘lishi shart. Bog‘lamlarni qo‘llash vaqtida imkonli boricha,

shikastlangan odamga ozor bermaslik, jarohatni og‘ritmaslikka harakat qilish lozim. Zero har safar bog‘lam qo‘yilganda jarohat qaytadan yangilanadi, bundan odam qattiq azoblanadi. Birinchi marta jarohatga qo‘yiladigan bog‘lam o‘z nomi bilan birlamchi sternal bog‘lam deyiladi. Buning uchun jarohatga iflos narsalarni tekkizmasdan uning yuzasini ochish, yalang‘ochlash zarur. Jarohatning harakteri, ob-havo va mahalliy sharoitlarga qarab, yaradorning ustki kiyimi yechib olinadi yoki biror o‘tkir asbob-uskuna yordamida avaylab kesiladi, qirqiladi. Kiyim avval shikastlanmagan, keyin esa, shikastlangan tomondan ohista yechiladi. Sovuq paytlarda yarador sovqotib qolmasligi, shuningdek, og‘ir ahvoldagi odamga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish zarurati tufayli kiyimning jarohat qismidagi bo‘lagi qirqiladi. Kiyimning jarohatga yopishib turgan qismi qaychi bilan avaylab kesib olinadi, so‘ngra ustiga toza bog‘lam qo‘yiladi. Yechib olingan kiyimni qaytadan qaytarish aksincha, teskari tartibda, ya’ni, avval shikastlangan, keyin esa, sog‘ tomonga qarab amalga oshiriladi. Bog‘lov xom ashyosi, materiali sifatida bint, doka, oq va kulrang paxta, ligning durracha (uch burchakli ro‘molcha)lar ishlatiladi. Bintni o‘ng qo‘lda ushlab, chap qo‘l bilan bog‘lamni tutib turish, bintning har bir o‘ramini peshmapesh rostlab, tekislab borish zarur.

Bintni bog‘lamdan uzmay turib, chapdan o‘ngga yozib boriladi, uning navbatdagi o‘rami avvalgisining yarmisini qoplashigacha o‘ralaveradi. Bog‘lamning qon aylanishiga halal bermasligi uchun uning ostiga biroz qalinroq, bosib turadigan maxsus mato qo‘yish maqsadga muvofiqli. Ayni paytda bog‘lamni juda bo‘sh qilmaslik ham zarur. Bog‘lov materiali namni o‘ziga tortadigan (gigroskopik), jarohatdan qon va o‘ziga yaxshi so‘rib oladigan, yuvilganidan so‘ng tez quriydigan, osongina sterillanadigan bo‘lishi lozim. Tabel bog‘lov vositalari: tibbiy bog‘lov xaltachalari, turli kattalikdagi bint va salfetkalar, sterillangan va sterillanmagan bo‘ladi. Sanoatda tibbiy bog‘lov xaltachalari, turli kattalikdagi bint va salfetkalar, steril sharchalar, tamponlar, tilimchalar asosan, dokadan tayyorlanadi, ular sterillangan va sterillanmagan bo‘ladi.

Yostiqchalarining faqat rangli ip bilan maxsus chatib qo‘ylgan tomoninigina qo‘l bilan ushslash mumkin. Yostiqchalar ustma - ust jarohat ustiga qo‘yilib, bint bilan o‘rab bog‘lanadi, so‘ngra bintning uchi to‘g‘nog‘ich bilan qadab mustahkamlanadi. Teshib o‘tgan jarohatni bog‘lash vaqtida uning kirish va chiqish teshiklarini berkitish maqsadida yostiqchaning surilmas qismi jarohatning bir teshigiga, suriladigan ikkinchi qismi esa, boshqasi ustiga qo‘yiladi va bint bilan o‘ralib, mustahkamlanadi. Paketning tashqi rezinali g‘ilofidan havo kirmaydigan, germetik bog‘lamlar qo‘yish uchun foydalilaniladi. Oddiy bog‘lov haltachasi shaxsiy bog‘lov paketidan farqli o‘laroq, hamma tomoni pishiq pergament qoqzozi bilan o‘ralgan bo‘ladi. Bir va ikki yostiqchali birinchi yordam xaltachalari ham pishiq qog‘oz, yupqa, yelim parda bilan o‘raladi. Durracha bog‘lamlar bosh ko‘krak qismlariga, yelka, tirsak, tizza,

boldirpanja bo‘g‘imlari, shuningdek, oraliqqa qo‘yiladi. Odatda, jarohat yuzasiga steril bint yoki salfetkalar qo‘yilgach, usti durrachalar bilan bog‘lab mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. RI Sharofutdinova, AN Asadullaev, Z.X Tolibova. The Factors and Basic Concepts Determining Community Health. Central Asian Journal of Medical and Natural Science 2 (5), 376-379
2. AN Asatullayev, OG Jabborova. Bleeding and its Types, Organization of Emergency Assistance in Bleeding. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 13, 111-116
3. A ASsadullayev. Jamiyatda sog’lom turmush tarzini tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxasislarining o’rni. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 1 (1).
4. A Asadullayev. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8).
5. А.Н Асадуллаев. Жамиятда соғлом турмуш тарзини ташкил қилишда жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларининг ўрни. Педагогика ва психологияда инновациялар журнали, 3-максус сон, 31-36 бетлар.
6. R.S Baymuradov, A.N Asadullayev, M.B Baxshullayeva. Роль гигиены физического воспитания в правильном росте и развитии подрастающего поколения.«Молодой исследователь: вызовы и перспективы» Сборник статей по материалам ССХVII. Москва, 158-164.
7. А.Н Асатуллаев. Ўткир заҳарланишларда шошилинч тиббий ёрдам. Science and Education 3 (5), 148-153.
8. A.A Narzullayevich. Talabalar salomatligida jismoniy tarbiyaning ahamiyati. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali 2 (9), 223-226.
9. A.Asadullayev. Геоэкологик муаммоларнинг инсон саломатлигига таъсири (Қоракўл йўналиши мисолида). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8).
10. A Asadullayev. Инсон саломатлигини зарур даражада таъминлайдиган омииллар. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8).
11. R.S Baymuradov, A.N Asadullayev. Yosh avlodni to‘g‘ri o‘sishi va rivojlanishida Jismoniy tarbiya geiginasining o’rni. Health Lifestyle And safety Activity.
12. A.Н Асадуллаев, Г.С Муратова, Р.И Шарофутдинова. The American Journal of applied Sciences. The American Journal of Applied .
13. A.Н Асадуллаев, Н.Р Очилова, О.Г Жабборова. Healthy lifestyle. Academicia an international multidisciplinary research journal (ISSN: 2249 .

14. A Asadullayev. Agroklasterlarda organik mahsulot ishlab chiqarish va biomassadan samarali foydalanish. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 45 (45).
15. A. Asadullayev. Iqlim o ‘zgarishining sabablari va oqibatlari. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 44 (44).
16. A Asadullayev. The role of distance education and its modern solutions in improving the skills of medical workers and staff working in the medical field. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 34 (34).
17. A Asadullayev. Cooperation of family and educational institutions in ecological education of children. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 30 (30).
18. А.Н Асатуллаев. Инсон бош миясининг чайқалиши, эзилиши ва лат ейиши. *Science and Education* 4 (4), 129-136.
19. I.S Manasova, K.I Ibrohimov, M.B Pulatova, M.K Mansurova. The Main Harmful Factors Of Flour Milling Production. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1200-1208.
20. A.A Narzullaevich. Pedagoglarning Ta’lim Jarayoniga Bola Organizmini O’ziga Xos Xususiyatlarini E’tiborga Olgan Holda Individual Yondoshuvi. Amaliy va tibbiot fanlari ilmiy jurnali. 269-274.
21. 13. N Babamuradova. Zamonaviy ta ‘lim mazmunida yoshlarda ekologik tafakkurni shakllantirish. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 44 (44).
22. N Babamuradova. Ekologiya darslarida interfaol mashqlar va topshiriqlardan samarali foydalanish shart-sharoitlari. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 43 (43).
23. N Babamuradova, Sulaymanova Z. A., Umarov B.B., Kadirova Z.Q., Xudoyerova E.A. Thermal behavior of ferrocenoylacetone benzoylhydrazone and its complex with copper(ii) ion. *Eurasian journal of medical and natural sciences* 2 (4), 2099-2112.
24. N Bobomurodova. Ta ‘lim muassasalarida kasbga yo ‘naltirishning dolzarbligi. *Talqin va tadqiqotlar* 1 (10).
25. N Babamuradova. Аждодлар меросида баркамол инсон саломатлиги ғояси. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32)
26. N Babamuradova. Conservation of water and soil resources. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32).
27. N Babamuradova. Umumiyl o ‘rta ta ‘lim maktabi o ‘quv fanlaridagi integratsiya jarayonlar. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32).
28. N Babamuradova. Aholini ommaviy sog ‘lomlashtirishda jismoniy mashqlarning o‘rni. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32.